

**Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti Psixologiya kafedrasida
“Erta turmush qurish va uning salbiy oqibatlari” mavzusida
“Kafedra kuni”**

BAYONNOMASI

Tadbir o'tkazilgan kun: 2025 yil 20 – fevral

Tadbir o'tkazilgan joy: BuxDU TTJ 4-binosi, ma'naviyat xonasi

Tadbir qatnashchilari: Psixologiya kafedrasida professor-o'qituvchilari

Kun tartibi:

1. “Erta turmush qurish va uning salbiy oqibatlari”

D.T.Ismatova : “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega”. Bu esa oila hamda jamiyatning farovonligini belgilaydi. O'z navbatida oila farovonligi davlat farovonligiga, oiladagi sog'lom muhit sog'lom jamiyat barpo bo'lishiga olib keladi. Har bir oilaning taqdiri jamiyat taqdiriga bevosita dahldor ekan. Bir masala borki, bu haqda jiddiy o'ylash, mulohaza qilish zarur. Bu oila tuzishdir. Voyaga yetgan qizlarni turmushga uzatib, o'g'illarni uylantirib, nevara-chevarali bo'lish har bir ota-onaning ezgu maqsadidir.

Xalqimizning an'anaviy va hayotiy muhim tadbiri bo'lmish nikoh bizda ko'proq ota-onaning keksalarning aralashuvi bilan amalga oshiriladi. Shu sababmi hayotimizda qarindoshlar o'rtasida quda-andachilik rishtalarini bog'lash, qizlarni erta turmushga uzatish, yigitlarimizni erta uylantirish kabi achinarli holatlar hamon uchrab turibdi.


L.R.Ostonova so'zga chiqib 16-18 yoshlarda ayol organizmi sog'lom farzand ko'rish uchun hali to'la shakllanmagan bo'ladi. Homilador bo'lish, farzand dunyoga keltirish bilan bog'liq jarayonlarda ona organizmi o'zidan ko'p miqdorda quvvat sarflaydi. Ko'zi yorigan ayol organizmi o'zini tiklab olishi uchun unga kamida 3-4 yil vaqt zarur bo'ladi. Bu bir tomondan bolaning ona sutiga to'yib o'sishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan ona navbatdagi homiladorlikdan saqlanadi. Ayollar salomatligini faqatgina homiladorlik davrida saqlabgina qolmay, balki o'smir qizlarni ham yoshlik davridan sog'-salomat o'sishiga ota-ona katta e'tibor qaratishi zarur. Ayollar uchun farzand ko'rishning eng qulay davri 20-30 yosh oralig'i hisoblanadi.

Qaror qilindi:

1. “Erta turmush qurish va uning salbiy oqibatlari” mavzusida keng targ'ibot ishlari olib borilsin.

Kafedra mudiri:

Tashkilotchilar:



A.M.Nazarov

L.R.Ostonova



**BUKHORO
DAVLAT
UNIVERSITETI**

**"XXI АСР ПСИХОЛОГИЯСИ"
МАВЗУИДАГИ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
АНЖУМАН**

**9-10 сентябрь
12:00**
(онлайн конференция)

Конференция ID рақами: 5001319324
Парол:



